SIRKA DARAXTINING TABIATDAGI SIRLI DUNYOSI

Naurizbaeva Guldana Paxratdinovna,

Atamuratova Xurliman Rustem qizi,
Ilmiy rahbar: **Baltaniyazov Jaqsibay Sarsenbaevich**
Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.19438500

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Totim (Rhus) avlodiga mansub o‘simliklarning morfologik, biologik va xo‘jalik ahamiyatiga oid ma’lumotlar yoritilgan. Xususan, Totimning o‘ziga xos tashqi tuzilishi, uning ikki uyli o‘simlik sifatidagi gullash xususiyatlari, meva va barglarning mavsumiy o‘zgarishi atroflicha tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, tarixiy manbalarga tayanib, Rhus coriaria (oshlovchi totim) turining terini oshlash va bo‘yash sanoatidagi o‘rni, uning “sirka daraxti” deb nomlanishi sabablari hamda zamonaviy botanikadagi ahamiyati ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Totim, Rhus, oshlovchi moddalar, botanik morfologiya, sirka daraxti, terini oshlash, ikki uyli o‘simliklar, ko‘kalamzorlashtirish.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о морфологическом, биологическом и хозяйственном значении растений рода Сумах (Rhus). В частности, подробно проанализированы своеобразное внешнее строение тотима, особенности его цветения как двудомного растения, сезонные изменения плодов и листьев. В статье также, основываясь на исторических источниках, раскрывается роль вида Rhus coriaria (дубильная приправа) в дубильной и красильной промышленности, причины, по которым его называют "уксусным деревом," и его значение в современной ботанике.*

Ключевые слова: *Тотим, Рхус, дубильные вещества, ботаническая морфология, уксусное дерево, дубление кожи, двудомные растения, озеленение.*

Abstract. *This article covers information on the morphological, biological, and economic significance of plants belonging to the genus Rhus. In particular, the unique external structure of Totim, the features of its flowering as a dioecious plant, and the seasonal changes in fruits and leaves were analyzed in detail. The article also, based on historical sources, reveals the role of the species Rhus coriaria (tanning spice) in the tanning and dyeing industry, the reasons for its name "acetic tree," and its significance in modern botany.*

Keywords: *Totim, Rhus, tannins, botanical morphology, acetic tree, tanning, dioecious plants, landscaping.*

Oshlovchi totim *(Rhus coriaria)* nomini yunoncha “rhus” – “oshlovchi yoki bo‘yoq beruvchi yog‘och” so‘zidan olgan. Qadimgi yunonlar uning barglari va yosh shoxlarini terini oshlash jarayonida keng qo‘llashgan, shu sababli bu tur oshlovchi totim deb nomlangan. Ehtimol, turkiy tilidan olingan – *“rhudd”* - qizil, qizil mevalari tufayli. Vatani Shimoliy Amerika. Totimning tabiiy areali Ulug‘ ko‘llar ya’ni Shimoliy Amerika va Kanada chegarasida joylashgan beshta yirik chuchuk suvli ko‘llar tizimidan, Atlantika qirg‘oqlarigacha bo‘lgan hududni qamrab oladi.

Ukrainada, Boltiq bo‘yida, Rossiyaning o‘rta mintaqasida, Kavkazda va O‘rta Osiyoda ekiladi. O‘zbekistonda 1 ta turi introduktsiya qilingan, u Oshlovchi totim *(Rhus coriaria)*.

Totim uzoq yashamaydi, 15-20 yoshida ildiz bachkilari hisobiga yangilanib, nobud bo‘ladi. Bo‘yi 10-12 m gacha, tanasining diametri 20 sm gacha bo‘lgan ko‘p tanali, barg to‘kuvchi, keng vertikal buta yoki kichik daraxt. Shox-shabbasi vertikal, soyabonsimon, qalin. Tanasi jigarrang silliq po‘stloq, keksa yoshda mayda tangachalar va sut sharbati bilan ajralib chiqadi (1-rasm).



1-rasm: Totim daraxti tanasining tuzilishi va sharbati

Yosh novdalari mayin tuklar bilan qalin qoplangan, bug‘uning tovoniga o‘xshaydi. Barglari ketma-ket joylashgan, murakkab, toq patsimon, uzunligi 60 sm gacha, 11-31 ta bargchadan iborat. Barglari ellipssimon yoki lantsetsimon shaklda bo‘lib, uzunligi 12 sm gacha va eni 4 sm gacha etadi, bandsiz, uchi o‘tkir, qirralari serqirra, yuqori tomoni to‘q yashil va silliq, pastki tomoni esa oqimtir tuklar bilan qoplangan. Barglar kuzda yorqin to‘q sariq yoki qizil rangga kiradi (2-rasm).



2-rasm: Totim daraxti barglarining morfologik tuzilishi va mavsumiy o‘zgarishi

Totim ikki uyli. Urg‘ochi gullar 20 sm gacha bo‘lgan qalin piramidal supurgilarda, erkaklar kattaroq va bo‘sh supurgilarda. Mayda changchi gullari sarg‘ish-yashil, urug‘chi gullari qizil rangda. Mevalari qizil, patsimon, tuklar bilan qoplangan sharsimon danaklardan iborat, qishda o‘simlikda saqlanib qoladi, ta’mi shirinroq, zaharli emas. Urug‘lari mayda, nordon ta’mga ega, shuning uchun sirka daraxti deb ataladi (3-rasm).



3-rasm: Totimning gul to‘plami hamda mevalari

Iyun oyida gullaydi. Hayotining 4-5 yilida gullab, meva beradi. Mevasi avgust oyida pishadi, ammo kech kuzgacha o‘simlikda qoladi. Totimni urug‘idan, bachkisidan, qalamchasidan ko‘paytirsa bo‘ladi, ammo hozirda urug‘idan ko‘paytirish kam qo‘llaniladi, sababi urug‘i juda qattiq bo‘ladi.

Qurg‘oqchilikka chidamli, yorug‘sevar, sho‘r tuproqlarda o‘sa oladi. Sovuqqa chidamli, -25°C gacha sovuqqa bardosh beradi, ammo -30-32 °C dan past haroratda novdalar muzlaydi, o‘simlik tezda - mavsum davomida yangilanadi.

Tutun va gazga chidamli, shahar sharoitiga chidamli. Namlik ortiqcha bo‘lganda zamburug‘ kasalliklari bilan zararlanadi. Zararkunandalarga chidamli hisoblanadi.

Totim o‘zining yirik, toq patsimon barglari bilan floramiz uchun juda manzarali va g‘ayrioddiy bo‘lib, «palьma» ko‘rinishini beradi. Ko‘kalamzorlashtirishda yakka va guruhli ekish ko‘rinishida, toshli tepaliklarni ko‘kalamzorlashtirishda hamda shamol va suv eroziyasiga uchragan tuproqlarni mustahkamlashda keng foydalanishga loyiq. Uzoq vaqt davomida o‘simlikni bezab turgan barglarning kuzgi qip-qizil rangi bog‘-park landshaftida rang-barang dog‘ hosil qilib, uning kuzgi koloritini, ayniqsa, to‘q ninabargli ko‘chatlar fonida boyitadi. Yorqin mevali yirik, qalin ro‘vaklari qish bo‘yi bu nafis o‘simlikni bezab turadi.

Teriga ishlov berishda ishlatiladigan oshlovchi moddalarni o‘z ichiga olgan qimmatli texnik o‘simlik (barglarida 25% gacha taninlar mavjud). Meva qobig‘ida mum - alohida qimmatli lak uchun xomashyo mavjud. Bargi, po‘stlog‘i va ildizidan ipak matolar uchun bo‘yoqlar tayyorlanadi. Qalin rangli yog‘och (sariqdan to‘q sariq-qizilgacha) manzarali buyumlar uchun mos keladi.

Totim o‘simligi o‘zining noyob morfologik xususiyatlari, qadimgi sanoatda tutgan muhim o‘rni va manzaraviy ahamiyati bilan tabiatning betakror va ko‘p qirrali boyligi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asgarpanah J., Saati S. An overview on phytochemical and pharmacological properties of *Rhus coriaria* L // Research Journal of Pharmacognosy. – 2014. – T. 1. – №. 3. – C. 47-54.

2. Baltaniyazov J. S., Kamalova N. B. Environmental and decorative properties linden leaved (Tilia cordata) under Karakalpakstan // Современное экологическое состояние природной

среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. – 2017. – С. 820-821.

3. Bekturganovna K.N., Sarsenbaevich B.J. Qoraqalpog‘iston respublikasi avtomobil yo‘l bo‘ylarini ko‘kalamzorlashtirishda asosiy daraxt va buta turlarini tanlash // Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 4. – С. 587-589.

4. Qayumov A., Boltaniyozov J. S. Dust-holding properties of wood and shrub species in the conditions of the republic of Karakalpakstan // The American Journal of Applied sciences. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 170-174.

5. Sarsenbaevich B.J. et al. Agrotechnology of cultivation and care plants lycium barbarum // American journal of social science. – 2025. – Т. 3. – №. 5. – С. 67-70.

6. Shabbir A. *Rhus coriaria* linn, a plant of medicinal, nutritional and industrial importance: a review //J Anim Plant Sci. – 2012. – Т. 22. – №. 2. – С. 505-12.